

SHEKSPIR SONETLARINING TARJIMASI: TADQIQ VA TAHLIL

Shoira Rustamovna Xodjayeva

Mustaqil izlanuvchi, Toshkent, Uzbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shekspir sonetlarining bilvosita tarjimalarda berilishi va ma'noviy jihatdan ekvivalentliklarni tanlay bilish xaqida tahlillar aks ettirilgan. Sonetlarni bilvosita o'zbek va rus tillardagi tarjimalari asliyat bilan qiyoslanib, tarjimada muqobililik va adekvatlik xodisalariga urg'u berilgan.

Tayanch so'zlar: sonetlar tarjimasi, tadqiq va tahlil, ekvivalentlik va adekvatlik, muqobil tarjima.

Kirish qismi: Buyuk nemis shoiri Johann Wolfgang Gyote ta'riflagandek, "Shekspir bepoyon" — uning merosi, mana, to'rt asrdirki dunyo xalqlarini o'ziga rom qilib kelmoqda. Shekspir dunyo ahliga eng avvalo dramaturg sifatida ma'lum bo'lsada, uning sonetlari jahon she'riyatining eng yorqin va betakror asarlari xazinasidan munosib o'rnini topgan. Taniqli ingliz shoiri Uilyam Vordsvort "Sonetlar Shekspir dil qufini ochguvchi kalitdir", deb yozganida ming karra haq edi.

B.Kushner sonetlar tarjimasida to'xtalib o'tar ekan, har bir avlod o'z zamonasi haqiqatlaridan kelib chiqib, sonetlarni idrok etishga intilishlarini va o'z talqinini taqdim etishlari muqarrarligini ta'kidlaydi.

Shekspir sonetlari 14 qatordan iborat she'riy shakl bo'lib, tarkibida uchta katreng va yakuniy kuplet bo'ladi. Sonetda qoidaga ko'ra faqat bitta mavzu ifodalangan bo'ladi va ilk misradanoq sonetning mazmuni bayon qilinib, keyingi misralarda u rivojlantiriladi va xissiy kechinmalar maromiga yetkazib ta'riflanadi. Yakuniy kupletda muallifning xulosasi yoki murojaati aks ettiriladi. Shekspir sonetlarining qofiyasi – *abab cdcd efef gg* bo'lib, sintaksisi va grammatik konstruksiyanining murakkabligi bilan ajralib turadi.

Shekspir sonetlarisni rus tiliga mohirona tarjima qilgan tarjimonlardan N.Gerbel, M.Chaykovskiy, S. Marshak, A. Finkel, V. Nabokov, M.Lozinskiy, A. Kroneberg, B. Pasternak tarjimalari kitobxonlarning qalbidan joy olgan.

Asosiy qism: Shekspir pyesa va sonetlarini o'zbek tiliga o'girgan tarjimonlardan A. Cho'lpon, G'. G'ulom, Uyg'un, M. Shayxzoda, Yu. Shomansur, A. Obidov, X. Davron, J. Kamol tarjimalari maqtovga sazovor. Yuqoridagi tarjimonlar Shekspir asarlarini asosan rus tilidagi matniga tayanib o'zbek tiliga o'girgan bo'lsalar, Jamol Kamol bevosita ingliz tilidagi asliyat matnidan tarjimani amalga oshirgan.

Sheskpirning 18-soneti 1-katreniga murojaat qilamiz:

Shall I compare thee to a summer's day?

Thou art more lovely and more temperate.

Rough winds do shake the darling buds of May,

And summer's lease hath all too short a date.

Bu yerda muallif sevgilisini rohatbaxsh yoz kuniga qiyoslab, yoz qizqa va o'tkinchi ekanligini, ammo sevgan yorining yoz kunidan ham yoqimligini va go'zalligi ta'kidlaydi.

Sonetlar tarjimasining nihoyatda nafisligi, stilistik yaxlitligi va lirik mukammaligi bilan ajralib turadigan S.Marshak ushbu kartenni rus tiliga quyidagicha tarjima qilgan:

Сравню ли с летним днем твои черты?

Но ты милей, умеренней и краше.

Ломает буря майские цветы,

И так недолговечно лето наше!

S.Marshakning tarjimasiga tayanib o'zbek tiliga tarjima qilgan M. Shayxzoda ushbu katrening lirizmi va musiqaviyligini o'z tarjimasida saqlab qolgan:

Chehrang o'xsharmikan yozning kuniga,

Yo 'q, sening mayinlik va husning oshiq:

Bo 'ron yoz gullarin sovurar nega?

Yozimiz muhlati shunchalik qisiq.

Asliyat matnidan to‘g’ridan-to‘g’ri tarjima qilgan J.Kamol tarjimasida ekvivalentlik yaqqol kuzatiladi. Shoirning ohangi va misralarning ketma-ketligi j. Kamolning tarjimasida saqlab qolingan. Gaplarning sintaktik tuzilishi jihatidan ham tarjima asliyat matniga mos tushadi:

*Seni yoz kuniga etaymi qiyos?
Bir ajib go ‘zalsan, sokina, dilbar.
Shamol yulqib otar chechaklarni, bas,
Yozimiz qisqadir, hademay o ‘tar.*

Ko‘rinib turibdiki, asliyat matnining mazmuni ikkala tarjimada (bilvosita va bevosita) ham saqlanib qolgan. Uchunchi misradagi “darling buds of May” iborasi Marshak tarjimasida takrorlansa, o‘zbek tilidagi tarjimalarda “chechak”, “yoz gullari” iboralarining tanlanishi optimal hisoblanadi. Tarjimonlar sonetning ma’nosini rus va o‘zbek tillarida mohirona yorita olgan.

130-sonetning 1- va 2-katreni va yakuniy kupletiga nazar solamiz – ushbu sonet nihoyatda metaforik bo‘lib, unda muallif sevgan ayolining go‘zalligini ideallashtirmaydi, aksincha, muallif ironik tarzda sevgilisining tashqi ko‘rinishini ta’riflaydi. Muallif yakuniy kupletda yorining belgilangan go‘zallik standartlariga mos kelmasligi uni sevishga to‘sinq bo‘la olmasligini tan oladi va sevgan yori uning uchun barcha go‘zallardan aziz ekanligini madh etadi:

*My mistress’ eyes are nothing like the sun;
Coral is far more red than her lips’ red;
If snow be white, why then her breasts are dun;
If hairs be wires, black wires grow on her head.
I have seen roses damask’d, red and white,
But no such roses see I in her cheeks;
And in some perfumes is there more delight
Than in the breath that from my mistress reeks.*

*And yet, by heaven, I think my love as rare
As any she belied with false compare.*

Asliyat matnidagi yambik pentameter vaznini saqlab qolgan M. Chaykovskiy tarjimasi quyidagicha:

*Ее глаза на солнце не похожи,
Коралл краснее, чем ее уста,
Снег с грудью милой не одно и то же,
Из черных проволок ее коса.

Есть много роз пунцовых, белых, красных,
Но я не вижу их в ее чертах, -

Хоть благовоний много есть прекрасных,
Увы, но только не в ее устах.

И все-таки, клянусь, она милее,
Чем лучшая из смертных рядом с нею.*

M. Chaykovskiyning tarjimasini evfemistik desak mubolag'a bo'lmaydi, chunki u ayrim metaforalarning tarjimasida yumshatishlardan foydalangan. Masalan, Shekspir 3-misrada sevgilisining siynalarini qordek oppoq emasligini, aksincha loy yoki kulning rangida ekanligini ("dun" – kulrang yoki jigarrang); 7- va 8-misrada mahbubasi og'zidan xushboy atirning emas, aksincha, noxush xid kelishini yozgan ("reek" – sasish, noxush hid taratish). Evfemistik tarjima natijasida ushbu keskin va qo'pol qiyoslashlar sezilmay qolgan. Umumiyligi jihatdan ma'no saqlangan bo'lsa ham, bir qator elementlarning yetishmasligi muallifning kayfiyatini va kinoyaviy ohangini o'quvchiga yetkaza olmagan.

Endi e'tiborimizni ushbu sonetning o'zbek tilidagi tarjimasiga qaratamiz:

*Na ko 'zi yulduzga qilguday qiyos,
Na dudog'i la'lga o'xshab ketadi.

Yelkalari oppoq marmarday emas,
Sochlari arqonday chuvab yotadi.*

Ushbu tarjimada Yu.Shomansur so'z tarjimasidan ko'ra, ma'noni yetkazishga e'tibor qaratgan va sonetning ohangi va she'riy ritmini saqlab qolgan. Tarjimon domestikatsiya, ya'ni asliyat matnini tarjima tilining mentaliteti va madaniyati me'yorlariga maksimal darajada yaqinlashtirish strategiyasini qo'llagan.

Tarjimonlar ushbu usuldan o'quvchi xorijiy matnni idrok etish oson va qulay bo'lishi uchun foydalanadilar. Bunda asliyat matnidagi ayrim elementlar olib tashlanishi yoki boshqa elementlar bilan almashtirilishi mumkin. Masalan, the sun (quyosh) tarjimada – yulduz bo'lib qolgan, coral (korall) so'zi esa – la'l, breasts (siyna, ko'krak) – yelka, wires (sim) – arqon so'zlari bilan almashtirilgan, chunki bizning adabiyotimizda va madaniyatimizda go'zallikni ta'riflashda ko'zlarning qoraligi – tunga, ularning chaqnab turishi – yulduzlarga, lablarning qirmizi – la'lga, sunbul sochlari – sharsharaga o'xshatiladi. Tarjimon ushbu sonet tarjimasida badanning oqligini – oq marmarga, sochlarni – arqonga o'xshatadi. Bizning fikrimizcha, ushbu misralarda tarjimon asliyat matnidan biroz uzoqlashishi bilan birgalikda, tabiiy jaranglashishiga ham putur yetkazgan.

Endi e'tiborimizni 104- va 108- sonetlarga qaratamiz:

<i>Sonnet No. 104</i>	<i>Sonnet No. 108</i>
<p><i>To me, fair friend, you never can be old, For as you were when first your eye I eyed, Such seems your beauty still. Three winters cold Have from the forests shook three summers' pride,</i></p> <p><i>Three beauteous springs to yellow autumn turn'd In process of the seasons have I seen, Three April perfumes in three hot Junes burn'd, Since first I saw you fresh, which yet are green.</i></p>	<p><i>What's in the brain that ink may character Which hath not figured to thee my true spirit? What's new to speak, what new to register, That may express my love or thy dear merit?</i></p> <p><i>Nothing, sweet boy; but yet, like prayers divine, I must, each day say o'er the very same, Counting no old thing old, thou mine, I thine, Even as when first I hallow'd thy fair</i></p>

<p><i>Ah! yet doth beauty, like a dial-hand, Steal from his figure and no pace perceived; So your sweet hue, which methinks still doth stand, Hath motion and mine eye may be deceived: For fear of which, hear this, thou age unbred; Ere you were born was beauty's summer dead.</i></p>	<p><i>name. So that eternal love in love's fresh case Weighs not the dust and injury of age, Nor gives to necessary wrinkles place, But makes antiquity for aye his page, Finding the first conceit of love there bred Where time and outward form would show it dead.</i></p>
---	--

Ma'lumki, Shekspirning 154 ta soneti mavzusi bo'yicha ikkita guruhga ajratilgan bo'lib, 1-126 gacha bo'lgan sonetlar Shekspirning sirli do'stiga, 127-152 qorasoch bug'doyrang xonimga ba'gishlangan. Aynan 104- va 108-sonetlarda Shekspir do'stiga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilib muxabbatini (108-sonetda) isxor aylaydi.

U 104-sonetda do'stini uchratganiga 3 yil to'lganini; fasllar almashgani bilan, do'sti hech o'zgarmaganligini, hanuzgacha savlatli va navqiron ekanligini ta'kidlaydi va shu tariqa do'stining fazilatlarini ulug'laydi.

108-sonetda Shekspir do'stiga bo'lgan sadoqati va muxabbati abadiyligini va tuyg'ulari vaqtga tobe' emasligini ma'lum qiladi. Ushbu sonetlar erkak kishiga bag'ishlanganligini "fair friend", "sweet boy" erkalashlaridan ko'rinib turibdi. Aksariyat rus tilidagi tarjimalarda yuqoridagi ikkala ibora ham "мой друг" deb tarjima qilingan va iboralardagi erkalash elementi olib tashlangan. Bu esa ma'noning neytrallashishiga sabab bo'lgan.

<p><i>Сонет 104</i></p> <p>Ты не меняешься с теченьем лет. Такой же ты была, когда впервые Тебя я встретил. Три зимы седые Трех пышных лет запорошили след. Три нежные весны сменили цвет На сочный плод и листья огневые, И трижды лес был осенью раздет... А над тобой не властствуют стихии. На циферблате, указав нам час, Покинув цифру, стрелка золотая Чуть движется невидимо для глаз, Так на тебе я лет не замечаю. И если уж закат необходим, – Он был перед рождением твоим! <i>S.Marshak tarjimasi</i></p>	<p><i>Сонет 108</i></p> <p>В какой еще строке не воплотил Я верный образ твой, любимый друг? Каких еще не достает чернил Для восхваленья всех твоих заслуг? Все исчерпав, за старое опять Я взялся и, покуда хватит сил, Не брошу, как молитву, повторять Все, что тебе когда-то посвятил. Любовью той, что вечно не тускнея, Собою попирает пыль и прах, Живу я и, с тобою молодея, Морщин не замечаю на щеках. Пусть форма и покажется мертвa Я нахожу все новые слова. <i>R.Badigov tarjimasi</i></p>
---	--

Tepadagi ikkita sonetning rus tilidagi ko‘plab tarjimalari ko‘rib chiqildi, lekin hech bir tarjimada, bizning nazarimizda, muallifning kayfiyati va ehtirosi to‘laqonli aks ettirilmagan. Bunday muhabbat lirikasi Uyg’onish davri do‘stlik an’analari doirasida oddiy hol xisoblanadi, ammo bu xodisa rus adabiyotiga tabiiy tarzda mos kelishi qiyin. Bu esa tarjimada qiyinchiliklar tug’dirishi muqarrar.

S.Marshak tarjimasining ikkinchi misrasidan biz sonet ayol kishiga bag’ishlangan degan xulosaga kelamiz. Shak-shubxasiz tarjima nihoyatda nafis. Biz tarjimada ekvivalentlikka ham erishilganini ko‘rishimiz mumkin, ammo sonetning ilk misralaridanoq tarjimon o‘quvchini adashtirgani bois, tarjima adekvatlilikdan yiroqlashgan deb xisoblaymiz.

108-sonetning yuqoridagi tarjimasidan ko‘rinib turibdiki, ikkinchi misradagi murojaatdan tashqari, sonetning ohangi juda neytral. Ushbu tarjimada misralarning

ketma-ketligini o'zgartirilgan va aksariyat so'z va iboralar tarjimada ishlatilmagan. Bizningcha, tarjimon so'z va ma'no tarjimasidan yiroqlashgani bois tarjima ekvivalentlik va adekvatlik me'yorlari talablariga javob bermaydi.

Xulosa qismi: Sonetlarni tarjima qilganda tarjimon oldida bir qator vazifalar turadi: 1. ma'noning to'g'ri tarjima qilinishi. She'riy tarjimaning qonun-qoidalariga ko'ra, bunda so'zma-so'z tarjima bo'lishi shart emas, ayrim hollarda esa buning iloji ham yo'q. Lekin tarjima tilida tabiiy jaranglaydigan so'z va iboralar tanlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi; 2. She'rning vazni, ohangi, ritmi, qofiyasi, stilistikasi, emotsionnalligi, ekspressivligi, shoirning kayfiyati va xissiyotlari o'quvchiga to'laqonli yetkazilishi kerak; 3. Shekspirning jonli va dinamik tilini o'quvchiga o'zga til vositalari yordamida taqdim qilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shakespeare W. Sonnets by William Shakespeare. - New York: State Street Press, 2000.
2. Шекспир Уильям. Уильям Шекспир. Сонеты. - Москва: Наука, 2016.
3. Күшнэр Б. О переводах сонетов Шекспира. – Питсбург: Pittsburgh University Press, 2004. C.5
4. Jamila Rustamova. (2024). FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK HOUSEHOLD WORDS IN LINGUISTICS. Conferencea, 40–46. Retrieved from <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/3348>
5. Begmatova, Buzakhro Marufjanovna, and Sarvinoz Sayfullaevna Kasimova. "STUDY OF THE PROBLEM OF PREDICATIVITY AND ATTRIBUTION IN LINGUISTICS."
6. Begmatova, B. M., Mutalova, G. S., & Kasimova, S. S. (2023). The Direct Object And Its Use In Arabic Language. Boletin de Literatura Oral-The Literary Journal, 10(1), 3601-3609.
7. Teshaboyeva, Ziyodakhon Qodirovna. "A Cognitive Study of "Baburname""S Translations and Principle of Compiling a Textual Dictionary." Journal of Pharmaceutical Negative Results (2022): 1994-2006.
4. Abduazizov A.A. Sharq xalqi ijodi G'arb nazarida// O'zbekiston

adabiyoti va san'ati, 18 may, 1990.– 156 b.

5. Inomiddin Imomov. English Speaking Nation: Uzbekistan. Journal WATESOL Newsletter. 2022/11/30. Pages 22-25

6. Qosimova, S. S. (2022). Analysis Of Inflectional Terms In The Study Of Hamiduddin Dariri. Journal of Positive School Psychology, 6(3), 2200-2203.

7. RUSTAMOVA, J. . (2024). SYSTEM CONNECTIONS IN THE SEMANTIC STRUCTURE OF KITCHEN VOCABULARY. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(1), 28–30. извлечено от <https://www.in academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/25546>

8. Akramxodjaeva, D., M. Nasretdinova, and M. Abdullayeva. "Translation of national events and concepts in fiction." International Journal of Scientific and Technology Research 9, no. 2 (2020): 2984-2986.

9. Jamila Rustamova. (2024). FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK HOUSEHOLD WORDS IN LINGUISTICS. Conferencea, 40–46. Retrieved from <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/3348>

10. Hamidov, X., & Abdullayeva, M. (2024, March). FRAZEOLOGIZMLARNING O'ZBEKCHA MUQOBIL VARIANTLARI VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI. In Konferensiyalar| Conferences (Vol. 1, No. 8, pp. 14-21).

11. Jalilova, D., Kurbonova, R., Erejepov, M., & Nematov, L. (2023). Development and analysis of logical scenario design in virtual reality laboratories for higher education institutions. In E3S Web of Conferences (Vol. 461, p. 01097).

12. JAMILA FARRUXOVNA RUSTAMOVA. (2024). BADIY MATINNING JAHON VA RUSS TILSHUNOSLIGIDAGI TADQIQI . Ta'lif Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, 21(2), 170–174. Retrieved from <https://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/5108>

13. Kamila, G., Jamila, R., & Hashimova, S. A. (2023). SEMANTIC MODELS FOR THE FORMATION OF VERBS FROM NOUNS BY CONVERSION IN ENGLISH. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(9), 705-710.